

VAFO TUSHUNCHASI TALQINI

Asadova Dilafruz Shirinboy qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Markaziy

Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek

tili yo'nalishi IV bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: mumtoz adabiyoti

tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

Xasanova Mashhura

Kalit so'zlar: vafo, sadoqat, A. Navoiy, A. Avloniy, A. Oripov, “Hayrat ul-abror”, “Chin do'st”, “Jannatga yo'l”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonni komillik sari yetaklovchi muhim fazilatlardan bo'lgan vafo va sadoqat tushunchalari yoritiladi. Shuningdek, A. Navoiy, A. Avloniy va A. Oripov asarlarida mazkur fazilatlarning badiiy talqini tahlil qilinib, “Hayrat ul-abror”, “Chin do'st” hamda “Jannatga yo'l” asarlari asosida ularning mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Keywords: loyalty, fidelity, A. Navoi, A. Avloni, A. Oripov, “Hayrat ul-abror”, “True Friend”, “The Road to Paradise”.

Abstract: This article highlights the concepts of loyalty and fidelity as essential virtues that lead a person toward moral perfection. It also analyzes the artistic interpretation of these qualities in the works of A. Navoi, A. Avloni, and A. Oripov, revealing their essence based on the texts “Hayrat ul-abror,” “True Friend,” and “The Road to Paradise.”

Ключевые слова: верность, преданность, А. Навои, А. Авлони, А. Орипов, «Хайрат ул-аброр», «Истинный друг», «Путь в рай».

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятия верности и преданности как важные качества, ведущие человека к духовному совершенству. Также анализируется художественное воплощение этих добродетелей в произведениях А. Навои, А. Авлони и А. Орипова на основе текстов «Хайрат ул-аброр», «Истинный друг» и «Путь в рай», раскрывается их идейно-смысловое содержание.

Vafo – inson qalbining eng nozik va eng ulug‘ fazilatlaridan biridir. U sadoqat, ishonch, vijdon va mehr kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insoniy munosabatlarning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Jamiyat taraqqiyoti, oilaviy

barqarorlik va shaxs kamolotida vafo alohida o‘rin tutadi. Zero, vafosiz muhabbat – so‘nuvchi sham, vafosiz do‘stlik – sinovga dosh bermaydigan rishtadir.

O‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida vafo timsoli ko‘plab obrazlar orqali yuksak darajada madh etilgan. Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy va istiqlol davri adabiyoti vakillaridan Abdulla Oripov kabi mutafakkirlar asarlarida vafo inson komilligining ajralmas belgisi sifatida talqin qilinadi. Sharq falsafasida ham vafo nafaqat shaxsiy fazilat, balki ma‘naviy yetuklik mezoni sifatida qaraladi. Masalan, A.Navoiy ijodida insonni komillikka chorlovchi xususiyatlar haqida fikrlari talaygina. Jumladan, " Xamsa" asarining " Hayrat ul-abror" dostonidagi sakkinchi maqolatni keltiraylik. Sakkizinchi maqolat vafo haqida bo‘lib, shoir bu axloqiy kategoriyani do‘stlik tushunchasiga bog‘liq holda talqin qiladi. Yor-do‘sti yo‘q kishi dursiz sadaf kabi qiymatsizdir, burgutning bir qanoti sinsa qulab tushadi, bitta o‘tindan gulxan yoqib bo‘lmaydi, bitta ustun uy tomini ko‘tara olmaydi. Shu kabi hayotiy misollar orqali mutafakkir shoir tiriklikning asosiy qonuniyatlaridan biri – juft bo‘lib, jamoaviylikda yashashning fazilatini olqishlaydi hamda bunday munosabatlarda o‘zaro vafo va sadoqat asos bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Uning ta’kidlashicha, vafo olamdagi eng noyob gavhar, inson umrini bezaydigan, unga mazmun va ulug‘vorlik bag‘ishlaydigan xislat. Vafo, sadoqat – beg‘araz tuyg‘ular. Vafoli kishi – shamdek yonib, o‘zgalarga nur sochishi va buning evaziga hech narsa talab qilmasligi lozim:

Yoriki, oyini vafo yo‘q anga,

Sham’ kibidurki, ziyo yo‘q anga.

“Ikki vafoli yor” hikoyatida esa shoir vafoning oliy namunasini ibrat qilib ko‘rsatadi: Hindistonni katta qiyinchilik bilan fath etgan Amir Temur Ko‘ragon aholini qatlom qilishga buyuradi. Olam qonga belanib, minglab kesilgan boshdan to‘kilgan qon daryo bo‘lib oqadi. Qiyomat qoyim bo‘lgandek, jang maydonida “ikki bechora yor” Temurning qattol sipohiga duch keladilar. Askarlardan biri shohning amrini ado etish uchun ular tomon ot soladi. Ikki do‘st bir-birining ustiga o‘zini tashlab, “mening boshimni kes, do‘stimni omon qoldir”, deb yolvoradilar. Qotil har ikkisinin ham birdaniga boshini kesmoqchi bo‘lganida, do‘stlar boshini tig‘ ostiga tutib, “oldin meni o‘ldir, men do‘stimning o‘limini ko‘rishga toqatim yo‘q”, deb iltimos qiladilar. Shu tariqa bir muddat o‘tib, to‘satdan “al-omon” (omonlik, kechirim) degan buyruq keladi. Qatlom to‘xtatiladi:

Bir-biriga kehti alar qonidin,

Shoh dag‘i kehti ulus qonidin.

Bundan ko‘rinib turibdiki, birgina yaxshi fazilat orqali inson taqdiri butunlay o‘zgarmoqda. Mana shu qisqa hikoyat orqali A.Navoiy inson qalbini poklashi kerakligi, yaxshi fazilatlar orqali insoniylik xususiyatini yanada kengaytirmog‘i lozimligini ta’kidlamog‘da.

Bundan tashqari biz ushbu vafo tushunchasini Abdulla Avloniyning "Chin do'st" hikoyasi bilan davol ettirsak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu hikoyada ikki do'st bir-birini juda qadrlashini, hatto cho'kayotgan paytda ham o'z jonini qutqarishdan oldin do'stini beziyon qutqarishini aytgan. Aynan mana shu hikoya orqali biz Abdulla Avloniyning Alisher Navoiyga an'alariga izdoshlik xususiyatini ko'rishimiz mumkin. Mana shu ikkala hikoyada ham do'stga muhabbat, sadoqatni eng yuqori pog'onasi aks etgan.

Ikki odam bir-biriga do'st bo'ldilar chunon,
 Bir nafas ayrilmas erdi bir-biridan ikki jon.
 Maslahat birla safar qilmoqni aylab ixtiyor,
 Bo'ldilar sahro tamoshosi uchun bir kun ravon.
 Yo'lda bir daryodan o'tmak to'g'ri keldi do'stlara,
 O'lturub bir kemaga ketmog'da erdilar hamon.
 Bir zamon to'lqun kelub ul kemani qildi xarob,
 Ul iki o'rtog' yiqildilar suv uzra nogahon.
 Suv yuzinda ul zamon ketmakda erdilar oqib,
 Suvchilar keldilar ushlab olg'ali suvdan amon.
 Ul iki do'stning birini tutsa, suvchig'a dedi:
 Qo'y mani, avval borub, do'stumni qutqar beziyon.
 Suvchi borub ushlasa o'rtog'ini,
 Ul ham aylar do'st qutulsun deb fig'on.
 Ko'rdingizmi, ey suchuk o'g'lonlarim,
 Do'stlig'dan bu siza bir doston.

Hikoyada sodda tarzda do'stlik mubosabatlari ochib berilgan. Do'stlar doim birga bo'lishini, ya'ni yaxshi kunda ham, yomon kunda ham bir-biriga kerak ekanligini ko'rsatib bergan. Kundalik hayotimizda doimo birga yuruvchi insonlarni uchratamiz, ammo ularning hammasi ham bir-biriga vafoli, sadoqatli ekanligi har doim ham o'z isbotini topmagan. Ular do'stlikni manfaatlari ustiga qurgan bo'lishlari mumkin. Zero, yaxshi do'st har kimga ham nasib qilavermaydi. Shunday ekan har bir kishi o'z xulqini to'g'rilasa va insoniylik xususiyatini yaxshi fazilatlar bilan shakllantirishi lozim. Shundagini yaxshi insonlar ko'payadi, sadoqatli do'stlar soni ortadi.

Vafo, sadoqat to'g'risida gapirar ekanmiz, bu xususiyatlar ayni damda ham muhimligicha qolmoqda. Fikrimizni istiqloq davri adabiyoti vakillari asarlari bilan davom ettiramiz. Mustaqillik davrida juda ko'p asarlar yozildi. Har birida o'zgacha ma'no, o'zgacha ruh bor. Biz yuqorida zikr qilgan vafo va sadoqat tushunchalari Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" asarida ham o'z aksini topgan. Ushbu asarda keltirilgan o'limdan keyingi dunyo, jannat, do'zax, savol-javob va qiyomat manzaralari – bu adibning asl g'oyalarini yetkazib berishdagi vosita xolos. Asarning

boshlanishi ilohiy tarozi oldiga savobu gunohlarini sarhisob qilish uchun yig'ilgan olomon va tarozibonning betaraf qiyofasi aks etgan manzaradan boshlanadi. Navbati yetgach qahramonimiz yosh shoir taroziga turgach gunohlari savoblaridan atigi ikki misqolgina ko'proq ekanligini yetkazishadi. Tabiiyki hamma qatori taajjublanib, tarozibon va uning yordamchisiga e'tiroz bildira boshlaydi:

Agar yordam bersangiz-ku jannat ham tayin,
Ancha-muncha savobim ham bordir, o'ldimi?!

Yigitning so'rovi rad etiladi, sababi unga shoirlik kabi buyuk iste'dod berilsa-da u bor mahoratini muhabbat, tabiat va shunga o'xshash mavzularga sarflab, ko'zlari bilan ko'rib tursa ham hayotligida uchragan illatlarga nisbatan biron qarshilik ko'rsatmaganligini aytishadi. Bu yerda Abdulla Oripov diniy mifologiya mavzusini niqob qilib foydalangan holda shoir yigitga tegishli bir vazifani o'rtaga tashlaydi. Nurni tasvirlamoqchi bo'lsang – soyani ham qo'shishing kerak. Har qanday aql sohibi bu so'zlar ma'nosini yaxshi tushunib yetadi. Yigit bir qizaloqni cho'kayotganida qutqaraman, deb o'zi ham suvga g'arq bo'lgani va shu sabab erta halok bo'lganini aytib, inobatga olinishini so'raydi. Ozroq suhbatdan so'ng tarozibon yigitni arosatga jo'natilishini va u yerdan biron kishidan ikki misqol savob topib kelishini buyuradi. O'zgalardan savob olish evaziga jannatga kirishni xohlamagan yigitga jannat darvozalari yoniga borib ota va onasini uchratishi mumkinligi aytilgach, diydorlariga bir marta bo'lsa ham to'yib olish uchun rozi bo'ladi.

Shoir yigit ikki misqol savob qidirib shu orada diydorga umid qilib arosat sahrosiga yo'l oladi. Arosat voqeiyliklarini adib bir necha halqalarga bo'lib tasvirlaydi, ya'ni bir necha pardalarga bo'lib beradi. Yolg'onchi, shuhratparast, hasadgo'y, kibrli va ota-onasiga oq bo'lgan obrazlar bir-biriga shunday bog'liq tasvirlanganki, o'quvchi beixtiyor voqealar ummoniga g'arq bo'ladi. Adib asari orqali hayotimizda uchrab turadigan axloqsizliklarga ilohiy tarozibon orqali hukm chiqaradi.

Asar yakunida qahramonimiz qadrdon do'stini uchratadi va arosatdek qor tuynukda uchrashgan qadrdonlarning o'zaro oqibati, sadoqati mukammal tasvirlanadi. Ma'lum bo'lishicha do'stiga ikki misqol savob yetmasdan sarson yurgan ekan. Qadrdonlar bir-biriga jannatni ilinib, ikkisi ham savobimdan ol, deb tortishib turganida bir ovoz ularga "bir-biringizga bo'lgan sadoqatingiz tufayli ikkingiz ham ikki misqoldan savob oldingiz" deb jannatga yo'llaydi. Asar yozilishiga yarim asrdan oshgan bo'lsa-da, bosh mavzu hamon dolzarbligini yo'qotmagan. Umuman olganda bu asar davr va millat tanlamaydi. O'qib borar ekansiz ko'zgu aksida o'zingizni ko'rganday bo'lasiz. Sababi asardagi qahramon yo'l qo'ygan xatoliklar jamiyatimiz, davrimiz insonlari uchun odatiy holdek.

Poyoniga yetdi mo'jaz, g'alati qissam,
Bir rivoyat bahonayu, doston so'yladim.
Turli-tuman taqdirlarni aylab mujassam,

Odamlarga ibrat bo'yladim.

Bu asarda asosiy e'tibor asar so'nggidir. Chunki bu dunyoda to'g'ri tanlangan do'st u dunyoda ham tanlov to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Do'stini uchun jonini berishga tayyorligi aks ettiriladi. Bular barchasini zamirida yaxshi xulq va go'zal odob yotadi. Xulosa qilib aytganda, asarda vafo va sadoqat insoniylikning eng muhim mezoni sifatida talqin etiladi. Ijodkor vafo orqali do'stlik, muhabbat va jamiyat hayotining mustahkamligi ta'minlanishini ta'kidlaydi. Demak, vafo inson kamoloti, ma'naviy poklik va ulug'likning ajralmas belgisi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Орипов.А Жаннатга йул(Драматик достон).Тошкент,1980.
- 2.5- sinf adabiyoti. Darslik.2020.
- 3.Sirojiddinov Sh. Navoiyshunoslik. Toshkent,2018.